

O'QUVCHILARGA MOTIVATSIYA BERISHNING MUHIM PSIXOLOGIK MASALALARI

Yunusova Marg'uba Mamatqulovna

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani

30-maktabning amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarga motivatsiya berishning psixologik jihatlari, ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda motivatsiyani shakllantirish usullari yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqishi, faolligi va o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, o'quvchi psixologiyasi, ta'lim, rag'batlantirish, qiziqish, o'ziga ishonch, psixologik yondashuv, muvaffaqiyat.

KIRISH

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda motivatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Motivatsiya insonni maqsad sari harakat qilishga undovchi ichki kuch hisoblanadi. Psixologik jihatdan motivatsiya o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Kuchli motivatsiyaga ega o'quvchilar faolroq, izlanuvchan va mas'uliyatli bo'ladilar.

O'quvchilarga motivatsiya berishda pedagogning munosabati muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi yondashuvi o'quvchilarda ishonch hissini kuchaytiradi. Rag'batlantirish motivatsiyani oshirishning samarali usullaridan biridir. O'quvchining har bir kichik yutug'ini e'tirof etish uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Maktabdagi sog'lom psixologik muhit ham motivatsiyaga ta'sir ko'rsatadi. O'zini xavfsiz va qadrlangan his qilgan o'quvchi dars jarayonida faolroq qatnashadi. Oilaviy muhit ham muhim omillardan biridir. Ota-onalarning farzandga bo'lgan e'tibori va

qo‘llab-quvvatlashi o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi. Psixologik jihatdan har bir o‘quvchining qiziqishi va qobiliyati turlicha bo‘ladi. Shu sababli individual yondashuv motivatsiyani shakllantirishda muhim hisoblanadi.

Dars jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Qiziqarli va amaliy mashg‘ulotlar bilim olishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Shuningdek, o‘quvchilarda maqsad qo‘yish ko‘nikmasini shakllantirish muhimdir. Aniq maqsadga ega bo‘lgan o‘quvchi o‘z ustida ko‘proq ishlashga intiladi. Psixologik trening va suhbatlar ham motivatsiyani oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu orqali o‘quvchilarda ijobiy fikrlash va o‘ziga ishonch rivojlanadi.

Ta‘lim oluvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishi, faolligi va muvaffaqiyatga erishish istagi ularning o‘qish natijalariga bevosita ta‘sir qiladi. Ta‘lim jarayonida motivatsiya - bu ta‘lim oluvchini o‘rganishga, bilim olishga undovchi ichki yoki tashqi kuchdir. Har qanday o‘quv muvaffaqiyatining asosi ta‘lim oluvchining faol ishtirokida va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishidadir. Shu bois, ta‘lim oluvchining asosiy vazifalaridan biri - ta‘lim oluvchida doimiy motivatsiyani shakllantirish va uni saqlab qolishdir.

Motivatsiya psixologiya va pedagogikaning asosiy muammolaridan biridir. Motivatsiya muammosining rivojlanishi insonning ma‘lum bir faoliyatga motivatsiyasi manbalarini tahlil qilish, “Insonni faoliyatga nima rag‘batlantiradi, uning xatti-harakatlarining sabablari nima?” degan savolga javob izlash bilan bog‘liq. Motivatsiya muammosining murakkabligi va ko‘p qirraliligi uning mohiyati va tuzilishini tushunishga yondashuvlarning ko‘pligini belgilaydi.

Motivatsiya ikki turga bo‘linadi: ichki va tashqi motivatsiya.

–Ichki motivatsiya – ta‘lim oluvchi bilim olishni o‘z ehtiyoji sifatida his qilganida yuzaga keladi. Bunda ta‘lim oluvchi o‘z qiziqishi, bilimga bo‘lgan chanqoqligi tufayli faoliyat yuritadi. Ichki motivatsiya ta‘lim oluvchining o‘z-o‘zini rag‘batlantirishiga, o‘z maqsadlariga erishishga intilishiga yordam beradi. Bu turdagi motivatsiya odatda uzoq muddatli va barqaror natijalarni keltirib chiqaradi, chunki ta‘lim oluvchi o‘ziga xos qiziqish va ehtiyojlardan kelib chiqib faoliyat yuritadi.

–Tashqi motivatsiya – mukofot, baho yoki o‘qituvchining e‘tirofi uchun amalga oshiriladigan harakatlar. Tashqi motivatsiya ko‘pincha ta‘lim oluvchining tashqi omillar (mukofotlar, baholar, ijtimoiy tasdiqlash) tomonidan boshqariladi. Ushbu motivatsiya qisqa muddatli va vaqt o‘tishi bilan kamayishi mumkin, chunki ta‘lim oluvchi faqat tashqi rag‘batlar uchun harakat qiladi va bu turdagi motivatsiya uning ichki ehtiyojlariga mos kelmasligi mumkin.

Ichki va tashqi motivatsiyaning to‘g‘ri muvozanati ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu muvozanat ta‘lim oluvchilarga motivatsiya berishning asosiy amaliy strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy omil bo‘ladi.

O‘quvchilarga motivatsiya berishning asosiy amaliy strategiyalaridan biri shaxsiy yondashuv hisoblanadi. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos ehtiyoj, qobiliyat va qiziqishlarga ega bo‘lgani sababli, ta‘lim jarayonida o‘qituvchilar ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarni tashkil etishlari kerak. Shaxsiy yondashuv orqali o‘quvchilarda o‘zini qadrlash hissi shakllanadi va o‘qishga bo‘lgan ishtiyoq ortadi. Shuningdek, o‘quvchilarga aniq va o‘lchab bo‘ladigan maqsadlarni qo‘yish ham ularning motivatsiyasini oshiradi. Qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlarni belgilash orqali o‘quvchilar o‘z muvaffaqiyatlarini kuzatib boradilar hamda natijalarga erishish uchun ko‘proq intilishadi. Maqsadlar realistik va erishish mumkin bo‘lishi muhim, chunki bu o‘quvchilarga muvaffaqiyat hissini tuyishga yordam beradi.

Ijobiy turtki va rag‘batlantirish ham motivatsiyani oshirishning samarali usullaridan biridir. O‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini e‘tirof etish, ularni rag‘batlantirish va qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Muvaffaqiyatlarni qadrlash va doimiy ijobiy turtki berish o‘quvchilarning o‘z maqsadlariga erishishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, an’anaviy dars usullaridan tashqari interaktiv va faol o‘quv usullarini qo‘llash ham ta‘lim samaradorligini oshiradi. Guruh ishlari, muammoli vaziyatlar, o‘yinlar va rolli mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar faollashadi hamda o‘qish jarayoniga chuqurroq jalb qilinadi. Mustaqil fikr yuritish imkoniyatining yaratilishi esa ularning ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'qituvchining model sifatida ishtiroki ham motivatsiyada muhim o'rin tutadi. O'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan munosabati, xulqi, sabr-toqati va o'ziga ishonchi o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qituvchi o'zini motivatsion namuna sifatida ko'rsata olsa, o'quvchilar ham unga o'xshashga intilishadi. Shu bilan birga, qiziqarli va dolzarb muammolarni taqdim etish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ularni o'quv jarayoniga yanada faolroq jalb qiladi. Haqiqiy hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirib, ularning maqsad sari intilishlarini kuchaytiradi.

Doimiy baholash va fikr bildirish ham o'quvchilar motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar o'zlashtirish darajasi haqida muntazam ma'lumot olib tursalar, ular o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa o'z ustida ishlash va yanada yaxshi natijalarga erishishga undaydi. Hamkorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ham motivatsiyani oshirishda katta ahamiyatga ega. Guruhlarda ishlash orqali o'quvchilar bir-biridan o'rganadi, fikr almashadi va o'zaro yordam ko'rsatadi. Bunday ijtimoiy muhit o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va muvaffaqiyatga birgalikda erishish hissini shakllantiradi.

Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'shish ham o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va darslarni yanada interaktiv qiladi. Multimediya vositalari, elektron dasturlar va onlayn platformalardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi kuchayadi. Texnologiyalar nafaqat bilim olishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarning mustaqil ishlash va o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Umuman olganda, o'quvchilarga motivatsiya berishning amaliy strategiyalari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shaxsiy yondashuv, aniq maqsadlar, ijobiy rag'batlantirish, faol o'quv usullari, o'qituvchining namuna bo'lishi, muammolarni hal qilishga qiziqish uyg'otish, doimiy baholash, hamkorlik va texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini hamda qiziqishini oshirib, ularning muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Ta'lim oluvchilargaga motivatsiya berish ta'lim jarayonining muhim qismi bo'lib, uning samaradorligini oshiradi. Amaliy strategiyalarni qo'llash orqali ta'lim oluvchilarni faollashtirish, o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularni o'z maqsadlariga erishishga undash mumkin.

Motivatsiya – bu faqat o'qish uchun emas, balki hayotda ham muvaffaqiyatga erishishning kalitidir. O'qituvchining o'z ustida ishlashi, o'quvchilarning psixologiyasini tushunishi va ularga individual yondasha olishi, motivatsiyani shakllantirishda muhim omillardandir. Samarali amaliy strategiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda bilim olishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish mumkin. O'quvchilarga motivatsiya berish nafaqat ularning o'qish jarayonini yengillashtiradi, balki ular uchun ta'limni yanada mazmunli va qiziqarli qiladi. Samarali strategiyalarni qo'llash orqali ta'lim oluvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning natijalarini yaxshilash mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga motivatsiya berish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. To'g'ri psixologik yondashuv va qo'llab-quvvatlash orqali faol, intiluvchan va bilimga chanqoq yoshlarni tarbiyalash mumkin. Ta'lim jarayonida motivatsiya muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mavlonova.R, To'rayeva.O, Xoliqberdiyev.K "Pedagogika" Toshkent — 2013
2. Avliyokulov N.X. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, - Buxoro, 2000
3. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
4. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyot – Toshkent, «Moliya», 2003

5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
- T.:
«IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.
6. Yuldoshev J. Ta'lim yangilanish yulida – T. «O'qituvchi», 2000 208-^{bet}.